

MAMADALI TOPIVOLDIYEV (KAZBEK) NING II-JAHON URUSHIDAGI QAHRAMONLIKLARI

Kamolov Diyorbek Jamoldin o'g'li

University of Business and Science

Tarix mutaxassisligi bo'yicha I-kurs magistranti

E-mail: kamolovdiyorbek02@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek o'g'loni Mamadali Topivoldiyev haqida yaqindan ma'lumot beriladi. Uning Ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki, qahramonliklari, faoliyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Mamadali Topvoldiyev, Farg'ona, Rishton, Kazbek, Osiyo yo'lbarisi, chekist, ikkinchi jahon urushi, partizanlar, Belarus, Gitler.

Kirish

Ikkinchi jahon urushi (1939-1945) tarixdagi eng katta urush bo'di. Jahon sanoatiga ulkan zarar keltirdi. Millionlab go'daklar otasiz, ayollar beva qoldi. Turar joylar, yashash obyektlari misli ko'rilmagan darajada vayrona bo'ldi. Urush asoratida ocharchilik yuz berdi. Shunday qilib ikkinchi jahon urushi insoniyatga eng katta talofat yetkazdi. Qariyb 60 million insonni yostig'ini quritdi. Urushda eng ko'p zararni g'olib davlatlardan bo'lgan SSSR ko'rdi. SSSR ikkinchi jahon urushida 27 mln aholisidan ayrildi. Ular ichida o'zbekistonlik jangchilar ham bo'lib, ulardan 263 000dan ziyod odam halok bo'ldi, 132 670 kishi bedarak yo'qoldi, 60 452 nafar vatandoshimiz nogiron bo'lib qaytdi. Shu bilan birgalikda qator o'zbek jangchilari yuksak qahramonliklar ham ko'rsatishdi. Ular orasida Mamadali Topivoldiyev alohida o'rin tutadi. Mamadali Topivoldiyev Ikkinchi jahon urushi qahramonlaridan biri. Mamadali urush vaqtida "Kazbek" nomi bilan shuxrat qozondi. Adolf Gitler e'tiboriga tushdi. Belorusiyada o'zining ikkinchi oilasini topdi. Yaqin do'sti Ivan Rilkov va onasi Anna Vasilyevna Rilkova xonadonidan boshpana topdi. Ivan Rilkov bilan partizanlar¹ safida juda ko'p qahramonliklar qildi.

Mamadali Topivoldiyev 1919-yil 20-sentyabrda Farg'ona viloyati, Qo'qon uyezdi, Rishton volosti, Pandigon qishlog'i dehqon oilasida tavallud topgan. Millati o'zbek. Otasi Topvoldi (Topivoldi, Boldi) dehqonchilik bilan shug'ullangan, onasi Melibuva uy bekasi bo'lgan. Oilada 4 nafar farzand bo'lishgan, to'ng'ich farzand Mamadali, undan so'ng esa Yigitali, Mahmudjon, Oyimchaxon. Maktabda boshlang'ich ta'limni (7 yillik) tugatgandan so'ng, 1934-yildan Rishton tumani aloqa bo'limida pochta xil qilgan, Oq yer qishlog'idagi 1-mashina-traktor stansiyasi qoshidagi traktor xil kursida o'qib, kolxozda traktorchi bo'lib ishlagan.

¹ Partizanlar – bosib olingan hududlarda ozodlik uchun kurash olib boruvchi ko'ngilli xalq armiyasi

Mamadali Topivoldiyev 1939-yilda harbiy xizmatga safarbar etilgan. Dastlab Lomja shahri (ba'zi manbalarda esa Bobruysk shahri) yonida joylashgan 130-artilleriya polkida mexanik haydovchi vazifasida xizmat qilgan. 1940-yilda Belostok shahridan polkiga qaytayotganida juda muhim topshiriqni bajarayotgan nemis josusini tiriklayin ushlagan. Topivoldiyev 1941-yildan Ikkinchi jahon urushida ishtirok eta boshlaydi. G'arbiy front tarkibida Belorussiyadagi mudofaa janglarida ishtirok etgan. Urush paytida Topivoldiyevning harbiy qismi Minsk viloyati, Borisov shahrida yaqinida nemislar qurshovida qolib ketadi. Qurshovdan faqat o'zi va safdoshi Ivan Rilkov omon qolishib, oyog'idan og'ir yaralangan holda Mogilyov viloyatidagi Ivanning Paserovo (Pisarevo) qishlog'iga jo'nab ketishadi. Ivanning onasi Anna (Galina) Vasilyevna Rilkova Topivoldiyevga o'z uyidan boshpana bergan, ammo qishloqdagi ayrim shaxslar Topivoldiyevning yashiringan joyi haqidagi xabar nemislarga yetkazishadi, nemis askarlari Rilkova uyini tintuv qilishib, uni qamchilab jazolaydi va uyini yoqib yuborishadi. Yerto'ladagi kartoshka uyumiga ko'milib olgan Topivoldiyev yong'inda tasodifan tirik qolib, Ratsev o'rmonidagi partizanlar otryadiga qo'shiladi. Bu otryadga Topivoldiyevdan tashqari quroldoshlari Ivan Rilkov va desantchi Nikolay Paxota ham qo'shilgan. Otryadga sobiq rota siyosiy rahbari Aleksandr Fyodorovich Simdyankin rahbarlik qilgan.

1941-yil noyabrida Topivoldiyev va Paxota nemislar tomonidan egallangan Borisov shahridagi qamoq lageridan 146 nafar harbiy asirni ozod etishadi. 1942-yil fevralida Krugloye shahrida razvedka chog'ida Topivoldiyev Hilfspolizei (tarjimasi "ko'makchi politsiya") tomonidan asirlikka olinadi, ammo ertasi kuni Topivoldiyev qo'riqchini o'ldirib, qochib ketadi. So'ngra 13 nafar askardan iborat partizanlik guruhi tuzib, Paserova, Dudakovich, Oglobli qishloqlarida o'z faoliyatini olib borishadi. Tez orada guruh chegara ofitseri Gerasim Aleksyevich Kirpich rahbarlik qilayotgan partizan otryadlari uyushmasiga qo'shiladi.

1942-yil may oxirida otryad kengayganligi sababli "Chekist" partizanlik brigadasi sifatida qayta tashkil etiladi. Brigada askarlari turli millat vakillari bo'lishgan, jumladan, Topivoldiyev, kogonlik G'appor Sultonov (1917—1943) o'zbek, Anatoliy Xaynatskiy, Ivan Kulikov belarus, Nikolay Fyodorov, Pavel Golitsin rus, Nikolay Apanasenko, Vasiliy Yurchenko ukrain, Aleksandr Simdyankin, Nikolay Koyanov mordvalik, Aleksey Dego ussuriysklik, Musul Majitov, Qosim Aisogaliyev qozoq, Sultan Murmaxet tatar, Ivan Ambrosimov udmurt, Daniil Aidarov, Stepan Yakimov osetin, Ivan Xristolyubov mariy, Ivan Danilov chuvash, Ilderxan Umaxanov qo'miq, Multon Elkonovich yahudiy millatidan bo'lishgan.

1942-yil kuzida brigada tarkibi yanada kengayadi, ammo brigada Oliy bosh qo'mondonlik bilan hali ham o'zaro aloqa o'rnatmagandi. Qo'mondonlikka to'plangan ma'lumotlarni yetkazish Topivoldiyevga yuklatiladi. Topivoldiyev brigada tomonidan qo'lga kiritilgan fashistlarning 7 ta muhim ma'lumotini Moskvaga, ya'ni Oliy bosh qo'mondonlikka yetkazadi. Moskvada qo'poruvchilik maktabida tahsil olib, 1943-yil bahorida brigadasiga qaytib keladi. 1943-yil 28-

mayda Topivoldiyev Nikolay Apanasenko bilan birga Shkolovsk tumanigi Klimovich qishlog'ida 20 nafar nemis askarlarini asir oladi.

1943-yil 13—15-iyun kunlari yakka o'zi Voronsevichi qishlog'ida nemislarning yengil va yuk avtomobillarini portlatib yuboradi.

1943-yil 26-avgustda Logovshino qishlog'ida joylashib olgan fashist otryadini bir o'zi pulemyoti bilan yo'q qiladi. Shu yilning yoz fasli oxirida safdoshi Nikolay Kayonov bilan ayollar kiyimini kiyib olgan holda Lyubanchi qishlog'iga kirib olishib, u yerda joylashgan 15 nafar nemis askarini qirib tashlaydilar. Voronsevichi qishlog'idagi jangda esa 8 nafar nemisni yo'q qilishib, 3 nafar partizanni qutqarishadi.

1943-yil dekabr boshida Topivoldiyev bo'linmasi bilan Tolochinsk tumani markazida joylashgan fashistlar garnizoniga hujum qilib, yuzlab asir tushgan sovet askarlarini ozod qilishadi. Askarlar orasida O'rta Osiyo vakillari ham bo'lishgan. Ular orasida keyinchalik tojikistonlik Karim Dadaboyev, qoraqalpog'istonlik Abdulla Bektemirov, Beshariq tumanidan Berdiquil Rahimov, Asakadan Qurbon Haydarov, Rahmatjon Yo'ldoshevlar partizanlik harakatiga qo'shiladilar.

1944-yil iyunida oxirgi partizanlik harakatida ishtirok etadi. Topivoldiyev Oliy bosh qo'mondonlikka yana bir muhim ma'lumotni yetkazgan. Ma'lumotda Belorussiyani ozod qilishda aholini xavfsizligini ta'minlash, muhim obyektlarning joylashuvi, dushmanga qarshi qaysi yo'nalishlarda zarba berishga oid ko'rsatmalar, partizanlar shtabida tayyorlangan maxfiy xaritalar bo'lgan. Natijada 1944-yil yozida Oliy bosh qo'mondonlik qaroriga asosan Belorussiyai to'liq ozod qilish boshlanadi va 1944-yil 3-iyul kuni Belorussiya to'laligicha ozod qilinadi.

Shundan keyin Mamadali Topivoldiyev 1944-yil 5-iyul kuni qo'mondonlik topshirig'iga ko'ra, Orsha shahri harbiy komendaturasida maxsus lavozimda faoliyat yuritadi.

Mamadali Topivoldiyev urushda bir qancha harbiy yutuqlarga erishgan, jumladan, 19 ta eshelonni, guruhi bilan 14 ta eshelonni, shaxsan o'zi esa 5 ta eshelon (shundan 4 tasini Prigan qishlog'i hududida) portlatib yuborgan, qo'l jangida 76 nafar nemis askarini yo'q qilgan, bir nafar nemis generalini asirga olgan. Topivoldiyevning asosiy quroli pulemyot bo'lgan, qayd varaqasida 150 dan ortiq nemis askarlari, ofitserlarni qirib tashlagani, 180 nafarini asir olgani, 20 dan ortiq avtomashinani yo'q qilgani keltirib o'tilgan. Kazbek har bir amalga oshirgan operatsiyasidan so'ng daraxt yoki devorga «**Kazbek**» deb xanjarda o'yib o'z ismini yozib chiqqan. Bu dushmanga doim qo'rquv solib kelgan. O'z askarlari uchun asosiy xavf ekanini anglab yetgan Adolf Hitler Kazbekning boshi uchun 50 ming marka pul, villa va ikki haftalik tatil mukofot va'da qiladi.

Topivoldiyevni beloruslar, safdoshlari va nemislar “Osiyo arsloni” (yoki “Osiyo yo'lbarisi”), “Kazbek”, “Tolya Kazbek”, “Tolik Kazbek”, “Chekist”,

“Kazbek Botir” deb atashgan. Mamadali ilk bor partizanlar guruhiga qoʻshilganida, ular kimligini soʻrashsa “Oʻzbek” deb javob beradi. Ular esa “Kazbek” deb eshitib, uni shunday chaqirishni boshlashadi va “Kazbek” nomi ommalashib ketadi. “Tolik”, “Tolya” nomlari esa tutingan onasi Anna Vasilyevna Topivoldiyev deb aytishga qiynalganligi sababli yuzaga kelgan. “Osiyo yoʻlbarsi”, “Osiyo arsloni” nomlari shubhasiz uning mardligi va qilgan qahramonliklari uchun atalgan.

Mamadali Topivoldiyevning qahramonliklari yerda qolmadi. Kazbek “Sovet ittifoqi qahramoni”, “Lenin ordeni”, “Qizil yulduz ordeni”, “jasurlik uchun medali”, “Jangovar xizmatlari uchun medal”, “Mehnat Qizil bayroq ordeni”, “Hurmat belgisi ordeni”, “1941-1945-yillardagi Ulugʻ vatan urushida Germaniya ustidan qozonilgan gʻalaba uchun medal”, “1941-1945-yillardagi Ulugʻ vatan urushida Germaniya ustidan qozonilgan gʻalabaning yigirma yilligi medali, “SSSR Qurolli Kuchlarining 50 yilligi yubiley medali” kabi medal va ordenlar bilan taqdirlangan.

Mamadali Topivoldiyev 1969-yil 6-may kuni oʻz ishxonasida (ayrim manbalarda 7-may) nomaʼlum shaxslar tomonidan pichoqlanishi (qizi Mavludaxonning soʻzlariga koʻra, Rahim ismli telbasifat kishi pichoqlagan) tufayli fojiali halok boʻlgan. Zohidon qishlogʻidagi qabristonga partizan safdoshlari Nikolay Apanasenko (1918—1959) va Ivan Kurushev (1916—1960) yoniga dafn etilgan. Mamadali Topivoldiyevning vafotidan soʻng Anna Vasilyevna Fargʻonaga Kazbek uyida 1 oy yashaydi. Vasilyevna sogʻligidagi muammo sabab yana Belorussiyaga qaytib ketadi va 1 yil oʻtmasdan vafot etadi. Keyinchalik Kazbekning ikki oilasi oʻrtasida bordi-keldi aloqalar bolib turgan.

Mamadali Topivoldiyev xotirasiga oʻzbek va belorus kino ijodkorlari tomonidan 2019-yili Belorussiya va Oʻzbekistonda Tengiz Dumbadze boshchiligida “Ular Belorussiyani ozod qilgandilar” (ruscha: “Они освобождали Беларусь”) hujjatli filmi namoyish etildi.

Xulosa. Mamadali Topivoldiyev oʻzining safdoshlari uchun oʻrnak boʻla oldi. U nafaqat Belorus balki butun SSSR ning haloskoriga aylandi. U koʻrsatgan qahramonliklar yangi davr uchun benixoya katta boʻldi. Qurol yaroqlar takomillashib, dushmanni oʻldirish oʻldirish uchun masofalar ahamiyati qolmagan vaqtda Kazbek yakka kurashlarda 76 kishidan ustun kelishi haqiqiy jasoratdir. Shuncha jasoratlar koʻrsatib Mamadali urushdan sogʻ-omon qaytib keldi. Mardlik umrni qisqartirmaydi degan jummalarga yaqqol misol boʻla oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Toʻlqinjon Zohidov. “Kazbek” — rishtonlik partizan (oʻzbek va rus tillarida). Fargʻona: “Fargʻona” nashriyoti, 2019 — 104-bet.
2. Вячеслав Апанасенко. Семья Апанасенко из кубанского хутора Братского (rus tilida), Краснодар, 2008 — 260-bet.

3. O‘zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi (kitob-albom). Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2020 — 320-bet.

4. Акмал Саидов. Парк Победы: философия мужества и стойкости (rus tilida). Ташкент: Тасвир, 2021 — 348-bet.

5. Baxtiyor Abdudafur. “Kazbek – Osiyo arsloni”

Internet saytlari

1. Botir Madiyurov. “Rishtonlik qahramon – “Kazbek”, “Osiyo arsloni”ni bilasizmi?”. “Xalq so‘zi” gazetasi sayti (2022-yil 9-may). 2023-yil 20-iyunda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.

2. “Rishtonning qahramon o‘g‘loni Mamadali Topvoldiyev memorial muzeyining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi”. Farg‘ona viloyati hokimligi rasmiy sayti (2022-yil 8-may). 2023-yil 20-iyunda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.

3. Hamid Burhon. “Otalarimiz xotirasi mangu yashaydi”. 2023-yil 20-iyunda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.

4. “Mamadali Topvoldiyev memorial muzeyi ochildi” Farg‘ona haqiqati gazetasi, №36 (2022-yil 10-may). 2023-yil 21-iyunda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.

5. “Kazbek” — rishtonlik partizan 2019,

6. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Mamadali_Topivoldiyev

(1919-yil 20-sentyabr, Pandigon qishlogʻi, Rishton volosti, Qoʻqon uyezdi, Fargʻona viloyati, Turkiston ASSR — 1969-yil 6-may, Zodiyon (Zohidon) qishlogʻi, Rishton tumani, Fargʻona viloyati, Oʻzbekiston SSR, SSSR) — Ikkinchi jahon urushi ishtirokchisi, yefreytor, Belorussiyaning Mogilyov va Vitebsk viloyatlarida gi partizanlik harakati qatnashchisi, „Chekist“ partizanlik brigadasining 5-otryadi razvedka boʻlinmasi komandiri, ushbu partizanlik brigadasi orasidagi yagona Sovet Ittifoqi Qahramoni (1944-yil 15-avgust), Rishton tumanidagi „Kommunizm“ kolxozi raisi (1954—1969).

Topivoldiyev urush davrida shaxsan oʻzi 5 ta eshelonni portlatgan, qoʻl jangida 76 nafar nemis askarini yer tishlatgan, bir nafar nemis generalini asirga olgan.

Topivoldiyevning qoʻlga olinishi uchun Adolf Hitler tomonidan nemis askarlariga 50 ming (ayrim manbalarda 25 ming) reyxminka pul mukofoti vaʼda qilingani aytiladi. Topivoldiyevni beloruslar, shuningdek, safdoshlari hamda nemislar „Osiyo arsloni“ (yoki „Osiyo yoʻlbarsi“), „Kazbek“, „Tolya Kazbek“, „Tolik Kazbek“, „Chekist“, „Kazbek Botir“ deb atashgan ➤.

Mamadali Topivoldiyev SSSR Oliy Soveti Prezidiumi farmonlariga asosan [Sovet Ittifoqi Qahramoni](#) unvoni, „O‘zbekiston SSRda xizmat ko‘rsatgan paxtakor“ faxriy unvoni, [Lenin ordeni](#), [Mehnat Qizil Bayroq ordeni](#), [Qizil Yulduz ordeni](#), „Hurmat Belgisi“ ordeni, „Jasurlik uchun“ medali, „Jangovar xizmatlari uchun“ ordeni, 1-darajali „Ulug‘ Vatan urushi partizaniga“ medali, „1941—1945-yillardagi Ulug‘ Vatan urushida Germaniya ustidan qozonilgan g‘alaba uchun“ medali, „1941—1945-yillardagi Ulug‘ Vatan urushida qozonilgan g‘alabaning yigirma yilligi“ medali, „SSSR Qurolli Kuchlarining 50 yilligi“ medali bilan mukofotlangan[➤].

Mamadali Topivoldiyev vafotidan so‘ng nomini abadiylashtirish maqsadida bir qator keng ko‘lamli tadbirlar amalga oshirilgan. Hozirga qadar uning xotirasiga bag‘ishlab anjumanlar, xotira kechalari, tadbirlar o‘tkazilib kelinmoqda[➤].

Tarjimai holi

[[tahrir](#) | [manbasini tahrirlash](#)]

Mamadali Topivoldiyev 1919-yil 20-sentyabr (ba’zi manbalarda 3-sentyabr)^{[1][2]} Farg‘ona viloyati, Qo‘qon uyezdi, Rishton volosti, Pandigon qishlog‘i dehqon oilasida tavallud topgan^{[3][4]}. Millati o‘zbek. Otasi Topvoldi (Topivoldi, Boldi) dehqonchilik bilan shug‘ullangan, onasi Melibuva uy bekasi bo‘lgan. Oilada 4 nafar farzand bo‘lishgan, to‘ng‘ich farzand Mamadali, undan so‘ng esa Yigitali, Mahmudjon, Oyimchaxon^{[2][5]}. Maktabda boshlang‘ich ta’limni (7 yillik) tugatgandan so‘ng, 1934-yildan Rishton tumani aloqa bo‘limida pochta xil qilgan, Oq yer qishlog‘idagi 1-mashina-traktor stansiyasi qoshidagi traktorchilik kursida o‘qib, kolxozda traktorchilik bo‘lib ishlagan^[1]. Yana bo‘sh paytlari rus, tatar, tojik millatiga mansub rishtonlik do‘stlari bilan birga [Bag‘dod tumanidagi](#) Serovo (hozirda Furqat) temir yo‘l stansiyasi ishchisi bo‘lib ham ishlagan^[6]. 1939-yilda harbiy xizmatga safarbar etilgan^[7]. Dastlab Lomja shahri^[6] (ba’zi manbalarda esa [Bobruysk shahri](#))^[8] yonida joylashgan 130-artilleriya polkida mexanik haydovchi vazifasida xizmat qilgan^{[9][10]}. 1940-yilda [Belostok shahridan](#) polkiga qaytayotganida juda muhim topshiriqni bajarayotgan nemis josusini tiriklayin ushlagan^[1]. 1945-yildan KPSS a‘zosi^[7].

Urushdagi faoliyati

[[tahrir](#) | [manbasini tahrirlash](#)]

Topivoldiyev 1941-yildan Ikkinchi jahon urushida ishtirok eta boshlaydi^[9]. G‘arbiy front tarkibida [Belorussiyadagi](#) mudofaa janglarida ishtirok etgan. Urush paytida Topivoldiyevning harbiy qismi [Minsk viloyati](#), [Borisov shahrida](#) yaqinida nemislar qurshovida qolib ketadi. Qurshovdan faqat o‘zi va safdoshi Ivan Rilkov omon qolishib, oyog‘idan og‘ir yaralangan holda [Mogilyov viloyatidagi](#) Ivanning Paserovo (Pisarevo) qishlog‘iga jo‘nab ketishadi. Ivanning onasi Anna (Galina) Vasilyevna Rilkova Topivoldiyevga o‘z uyidan boshpana bergan^[11], ammo qishloqdagi ayrim shaxslar Topivoldiyevning yashiringan joyi haqidagi xabar nemislarga yetkazishadi, nemis askarlari Rilkova uyini tintuv qilishib, uni qamchilab jazolaydi va uyini yoqib yuborishadi. Yerto‘ladagi kartoshka uyumiga ko‘milib

olgan Topivoldiyev yong'inda tasodifan tirik qolib, Ratsev o'rmonidagi partizanlar otryadiga qo'shiladi^[6]. Bu otryadga Topivoldiyevdan tashqari quroldoshlari Ivan Rilkov va desantchi Nikolay Paxota ham qo'shilgan. Ortraydga sobiq rota siyosiy rahbari (*ruscha*: *политический руководитель*) *mordvalik* Aleksandr Fyodorovich Simdyankin rahbarlik qilgan^[11].

1941-yil noyabrida Topivoldiyev va Paxota nemislar tomonidan egallangan *Borisov shahridagi* qamoq lageridan 146 nafar harbiy asirni ozod etishadi^{[6][12]}. *1942-yil fevralida Krugloye shahrida razvedka* chog'ida Topivoldiyev Hilfspolizei (tarjimasi „ko'makchi politsiya“) tomonidan asirlikka olinadi, ammo ertasi kuni Topivoldiyev qo'riqchini o'ldirib, qochib ketadi. So'ngra 13 nafar askardan iborat partizanlik guruhi tuzib, Paserova, Dudakovich, Oglobli qishloqlarida o'z faoliyatini olib borishadi^[6]. Tez orada guruh chegara ofitseri Gerasim Aleksyevich Kirpich rahbarlik qilayotgan partizan otryadlari uyushmasiga (*ruscha*: *объединение партизанских отрядов*) qo'shiladi.

Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, Paserovo qishloq aholisi xirmonni erta yig'ib olib, uni nemislardan yashirishga kelishib oladi, o'z navbatida, Topivoldiyev qishloqdagi yagona traktorni tuzatib, xirmonni yig'ishtirishda yordam beradi. Bundan xabar topgan *Hilfspolizei* (tarjimasi „ko'makchi politsiya“) Topivoldiyevni asirga olishib, Krugloyedagi qamoq lageriga jo'natishadi. Topivoldiyev lagerdan qochib, Kirpich otryadiga qo'shiladi.

1942-yil may oxirida otryad kengayganligi sababli „Chekist“ partizanlik brigadasi sifatida qayta tashkil etiladi. Brigada askarlari turli millat vakillari bo'lishgan, jumladan, Topivoldiyev, *kogonlik* G'appor Sultonov (1917—1943)^{[13][14]} o'zbek, Anatoliy Xaynatskiy, Ivan Kulikov *belarus*, Nikolay Fyodorov, Pavel Golitsin *rus*, Nikolay Apanasenko, Vasiliy Yurchenko *ukrain*, Aleksandr Simdyankin, Nikolay Koyanov *mordvalik*, Aleksey Dego *ussuriysklik*, Musul Majitov, Qosim Aisogaliyev *qozoq*, Sultan Murmaxet *tatar*, Ivan Ambrosimov *udmurt*, Daniil Aidarov, Stepan Yakimov *osetin*, Ivan Xristolyubov *mariy*, Ivan Danilov *chuvash*, Ilderxan Umaxanov *qo'miq*, Multon Elkonovich *yahudiy* millatidan bo'lishgan^[15].

1942-yil iyul oyida Kruglyansk, *Biyalinichiy*, Tolochinsk, *Orsha*, Lepelsk, Shklovsk tumanlaridagi partizanlik otryadlari ham brigadaga kelib qo'shiladi. 5-otryad *razvedka* bo'linmasi komandiri sifatida ilk harbiy harakati *Smolenskdan Minskga* ketayotgan dushman poyezdiga qilgan hujumi bo'lgan. Trotsilovo — Slavnaya stansiyasi oralig'ida poyezd to'liq yo'q qilinadi. O'sha yilning oktyabrida Topivoldiyev aholidan chorvasini tortib olib, Podberezino qishlog'iga to'plagan nemis askarlarini yo'q qilish rejasini o'ylab topadi hamda qo'riqchi nemis askarini yo'q qilib, podani otryad shtabiga olib keladi^[6].

1942-yil kuzida brigada tarkibi yanada kengayadi, ammo brigada *Oliy bosh qo'mondonlik* bilan hali ham o'zaro aloqa o'rnatmagandi. Qo'mondonlikka to'plangan ma'lumotlarni yetkazish Topivoldiyevga yuklatiladi. Topivoldiyev brigada tomonidan qo'lga kiritilgan fashistlarning 7 ta muhim

ma'lumotini [Moskvaga](#), ya'ni Oliy bosh qo'mondonlikka yetkazadi^[13]. Moskvada qo'poruvchilik maktabida tahsil olib, [1943-yil bahorida](#) brigadasiga qaytib keladi^{[9][11][16]}.

[1943-yil 28-mayda](#) Topivoldiyev Nikolay Apanasenko bilan birga Shkolovsk tumanigi Klimovich qishlog'ida 20 nafar nemis askarlarini asir oladi.

[1943-yil 13—15-iyun](#) kunlari yakka o'zi Voronsevichi qishlog'ida nemislarning yengil va yuk avtomobillarini portlatib yuboradi.

[1943-yil 26-avgustda](#) Logovshino qishlog'ida joylashib olgan fashist otryadini bir o'zi [pulemyoti](#) bilan yo'q qiladi.

Shu yilning yoz fasli oxirida safdoshi Nikolay Kayonov bilan ayollar kiyimini kiyib olgan holda Lyubanchi qishlog'iga kirib olishib, u yerda joylashgan 15 nafar nemis askarini qirib tashlaydilar^[17]. Voronsevichi qishlog'idagi jangda esa 8 nafar nemisni yo'q qilishib, 3 nafar partizanni qutqarishadi. Ushbu jasorati uchun Topivoldiyev [Qizil Yuldez ordeniga](#) tavsiya qilinadi.

[1943-yil sentyabrida](#) Tolochin qishlog'iga kelib o'rtnashgan [Turkiston legioni](#) bilan muzokaralar o'tkazish orqali taslim bo'lishga ko'ndiradi. Legiondan 27 (ba'zi manbalarda 17)^[18] kishi partizanlik harakatiga qo'shiladi^{[19][16]}. [7-oktyabrda](#) bo'linmasi bilan Orexovka qishlog'idagi fashistlarning fransuz garnizonini yo'q qilgan^[18].

[1943-yil dekabr](#) boshida Topivoldiyev bo'linmasi bilan Tolochinsk tumani markazida joylashgan fashistlar garnizoniga hujum qilib, yuzlab asir tushgan sovet askarlarini ozod qilishadi. Askarlar orasida O'rta Osiyo vakillari ham bo'lishgan. Ular orasida keyinchalik tojikistonlik Karim Dadaboyev, qoraqalpog'istonlik Abdulla Bektemirov, [Beshariq tumanidan](#) Berdiquil Rahimov, [Asakadan](#) Qurbon Haydarov, Rahmatjon Yo'ldoshevlar partizanlik harakatiga qo'shiladilar^[20].

[1944-yil iyunida](#) oxirgi partizanlik harakatida ishtirok etadi^[11]. Topivoldiyev Oliy bosh qo'mondonlikka yana bir muhim ma'lumotni yetkazgan. Ma'lumotda [Belorussiyani](#) ozod qilishda aholini xavfsizligini ta'minlash, muhim obyektlarning joylashuvi, dushmanga qarshi qaysi yo'nalishlarda zarba berishga oid ko'rsatmalar, partizanlar shtabida tayyorlangan maxfiy xaritalar bo'lgan. Natijada 1944-yil yozida Oliy bosh qo'mondonlik qaroriga asosan Belorussiyai to'liq ozod qilish boshlanadi va [1944-yil 3-iyul kuni Belorussiya](#) to'laligicha ozod qilinadi.

Shundan keyin Mamadali Topivoldiyev [1944-yil 5-iyul kuni](#) qo'mondonlik topshirig'iga ko'ra, [Orsha shahri](#) harbiy komendaturasida maxsus lavozimda faoliyat yuritadi.

Mamadali Topivoldiyev urushda bir qancha harbiy yutuqlarga erishgan, jumladan, 19 ta eshelonni, guruhi bilan 14 ta [eshelonni](#)^[19], shaxsan o'zi esa 5 ta [eshelon](#) (shundan 4 tasini Prigan qishlog'i hududida) portlatib yuborgan, qo'l

jangida 76 nafar nemis askarini yo‘q qilgan, bir nafar nemis generalini asirga olgan^[10]. Topivoldiyevning asosiy quroli [pulemyot](#) bo‘lgan^[19], qayd varaqasida 150 dan ortiq nemis askarlari, ofitserlarni qirib tashlagani, 180 nafarini asir olgani, 20 dan ortiq avtomashinani yo‘q qilgani keltirib o‘tilgan^[13]. Topivoldiyevning qo‘lga olinishi uchun [Adolf Hitler](#) tomonidan nemis askarlariga 50 ming (ayrim manbalarda 25 ming)^[12] reyxmarka pul mukofoti va’da qilingan^{[1][16][17][21]}.

„Kazbek“, „Tolik“ nomlarining kelib chiqishi

[[tahrir](#) | [manbasini tahrirlash](#)]

Mamadali Topivoldiyev birinchi marotaba „Chekist“ partizanlik brigadasida bo‘lganida, undan kimligini so‘rashganda Topivoldiyev „O‘zbek“ deya javob bergan, ammo partizanlar uning talaffuziga tushunmasdan „Kazbek“ deb chaqirisha boshlaydilar^[22]. Tutingan onasi Anna Vasilyevna Topivoldiyevning ismini aytishga qiynalgani uchun uni „Tolik“, „Tolya“ deb atay boshlaydi^{[19][16][17]}. Harbiy jangovar operatsiyadan keyin Mamadali Topivoldiyev xanjari bilan devor va daraxtlarga „Kazbek“ ismi o‘yib tushirgan, shu orqali dushmanni qo‘rquvga solib turgan^[1]. Topivoldiyevni beloruslar, safdoshlari va nemislar „Osiyo arsloni“ (yoki „Osiyo yo‘lbarsi“), „Kazbek“, „Tolya Kazbek“, „Tolik Kazbek“, „Chekist“, „Kazbek Botir“ deb atashgan^[23].

Urushdan keyingi faoliyati

[[tahrir](#) | [manbasini tahrirlash](#)]

Mamadali Topivoldiyev [1945-yil 8-mayda](#) harbiy xizmatdan ozod etiladi^[24]. Bir muncha muddat [Minsk shahrida](#) yashab, [Belorussiya SSR](#) Qishloq xo‘jaligi xalq komissarligida haydovchi bo‘lib ishlaydi^[19], so‘ngra o‘z qishlog‘iga qaytib ketadi. [1947-yil 16-fevralda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti](#) 1-chaqiriq deputati etib saylanadi^[3]. [1946-yil Voroshilov](#) nomidagi kolxoz raisi, [1952—1953-yillarda](#) tuman iste’molchilar uyushmasi bo‘limi rahbari, [1953—1953-yillari](#) Rishton GES rahbari, [1953—1954-yillari](#) O‘zbekiston SSR Oziq-ovqat sanoati vazirligiga qarashli Qo‘qondagi „Uzprodtrans“ avtobazasi direktori, [1954—1969-yillari](#) „Kommunizm“ kolxozi raisi bo‘lib ishlagan^{[3][4][25]}. Aynan kolxoz raisi bo‘lgan davrda Amirobod cho‘li o‘zlashtirilib, 500 gektar yangi yerlar paydo bo‘ladi. Topivoldiyev tashabbusi bilan [Toshkentda Zohidon qishlog‘i](#) bosh rejasi ishlab chiqiladi^[26]. Rejaga asosan qishloqda paxsali uylar o‘rniga zamonaviy ko‘rinishdagi yangi uylar qurilib, qishloq gazlashtiriladi, asta-sekinlik bilan qishloq shahar shaklidagi aholi punktiga aylanadi. Kolxozda zamonaviy tibbiyot markazi binosi qurilib, foydalanishga topshiriladi. Topivoldiyevning tashabbusi va kolxoz mablag‘lari hisobidan qishloqdagi 3-maktabning yangi binosi ham qurib bitkaziladi. [1964-yil 25-avgustda](#) maktabning ochilish marosimiga [Sovet Ittifoqi Qahramoni](#), [fazogir Yuriy Gagarin](#) tashrif buyurgan^{[25][27]}. Topivoldiyevning amalga oshirgan ishlari tufayli o‘sha paytda Zohidon qishlog‘ida 20 nafar shifokor, 80 nafar o‘qituvchi, 150 nafar muhandis-texnik, agronom, zootexniklar mehnat faoliyati olib borisha boshlashdi^[27]. Urushdan keyin bir necha marta Belorussiyaga borib keladi. U yerda tutingan onasi Anna Rilkovaga urushda buzib tashlangan uyi o‘rniga

yangisini qurib beradi^[25]. Shuningdek, urushda birga xizmat qilgan safdoshlari Nikolay Apanasenko va Ivan Kurushevga ham oʻz qishlogʻidan ish topib bergan^[19].

Vafoti

[[tahrir](#) | [manbasini tahrirlash](#)]

Mamadali Topivoldiyev 1969-yil 6-may kuni^[6] oʻz ishxonasida (ayrim manbalarda 7-may)^{[7][10][28][29]} nomaʼlum shaxslar tomonidan pichoqlanishi (qizi Mavludaxonning soʻzlariga koʻra, Rahim ismli telbasifat kishi pichoqlagan)^{[1][30]} tufayli fojiali halok boʻlgan^[12]. [Zohidon qishlogʻidagi](#) qabristonga partizan safdoshlari Nikolay Apanasenko (1918—1959) va Ivan Kurushev (1916—1960) yoniga dafn etilgan

1. [Sarvar Ziyayev. „Boshi uchun Hitler 50 ming marka mukofot va'da qilgan fargʻonalik Kazbek“. kun.uz sayti \(2021-yil 9-may\). 2023-yil 20-iyunda asl nusxadan \[arxivlangan\]\(#\). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.](#)
2. [↑ ^{Jump up to:2.0 2.1} „Kazbek“ — rishtonlik partizan 2019, s. 72](#)
3. [↑ ^{Jump up to:3.0 3.1 3.2} !\[\]\(73937a8f461f9a87bc32687d38d0d956_img.jpg\) \[Oʻzbek sovet ensiklopediyasi: 11-jild \\(Tekislik — Fazliy\\). Toshkent: „Oʻzbek sovet ensiklopediyasi“ Bosh redaksiyasi, 1978 — 656-bet.\]\(#\)](#)
4. [↑ ^{Jump up to:4.0 4.1 4.2} !\[\]\(da858e3d6103141af517539e8660fcef_img.jpg\) \[Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi: 8-jild \\(Solnoma — Toʻytopa\\). Toshkent: „Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2004 — 704-bet.\]\(#\)](#)
5. [↑ \[„Посвящается 100-летию со дня рождения Героя Советского Союза Мамадали Топиволдиева“ \\(rus tilida\\) \\(2019-yil 20-sentyabr\\). 2023-yil 21-iyunda asl nusxadan \\[arxivlangan\\]\\(#\\). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.\]\(#\)](#)
6. [↑ ^{Jump up to:6.0 6.1 6.2 6.3 6.4 6.5 6.6 6.7} \[Toʻlqinjon Zohidov. „Belaruslar qalbidan joy olgan oʻzbek jangchisi — Kazbek yoxud boshi uchun Adolf Gitler 50 ming doychemarka „mukofot“ va'da qilgan oʻzbekistonlik“. daryo.uz sayti \\(2019-yil 30-iyul\\). 2019-yil 31-iyulda asl nusxadan \\[arxivlangan\\]\\(#\\). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.\]\(#\)](#)
7. [↑ ^{Jump up to:7.0 7.1 7.2} \[„Топвалдыев Мамадали“ \\(rus tilida\\). 2023-yil 21-iyunda asl nusxadan \\[arxivlangan\\]\\(#\\). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.\]\(#\)](#)
8. [↑ ^{Jump up to:8.0 8.1 8.2} \[Павел Жуков. „Толик Казбек: диверсант, ставший прототипом киногероя“ \\(rus tilida\\) \\(2021-yil 28-mart\\). 2023-yil 21-iyunda asl nusxadan \\[arxivlangan\\]\\(#\\). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.\]\(#\)](#)
9. [↑ ^{Jump up to:9.0 9.1 9.2 9.3} \[Валерий Воробьев. „Топвалдыев Мамадали“ \\(rus tilida\\). 2023-yil 20-iyunda asl nusxadan \\[arxivlangan\\]\\(#\\). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.\]\(#\)](#)
10. [↑ ^{Jump up to:10.0 10.1 10.2 10.3} \[„Топвалдыев Мамадали“ \\(rus tilida\\). 2023-yil 22-iyunda asl nusxadan \\[arxivlangan\\]\\(#\\). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.\]\(#\)](#)

11. ↑ [Jump up to:11.0 11.1 11.2 11.3 11.4](#) Tohir Hamroqulov. „[Farzandlik burchi](#)“. „*Guilston*“ jurnali, №7 13—14-sahifalar (1985-yil 1-iyul). 2023-yil 28-martda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
12. ↑ [Jump up to:12.0 12.1 12.2 12.3](#) Yulduz O'rmonova. „[Belarus xalqi „Osiyo yo'lbarisi“ deb atagan o'zbek o'g'loni kim bo'lgan?](#)“. „*Xalq so'zi*“ gazetasi sayti (2020-yil 9-may). 2023-yil 22-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
13. ↑ [Jump up to:13.0 13.1 13.2](#) Mirjalol Qosimov. „[O'zbekistonlik partizanlarning sobiq ittifoq hududini ozod etishdagi ishtiroki](#)“. *O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari* 7-sahifa (2022). 2023-yil 13-martda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
14. ↑ „[Султанов Гапар](#)“. 2023-yil 22-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
15. ↑ [Матюшевская М. И. „Роль семейной памяти и устной истории в современном изучении событий Великой Отечественной войны 1941-1945 гг.“](#) (rus tilida). 2023-yil 21-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
16. ↑ [Jump up to:16.0 16.1 16.2 16.3](#) М. Гореликова. „[Герой Советского Союза Мамадали Топвалдыев](#)“ (rus tilida) (2019-yil 20-sentyabr). 2023-yil 22-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
17. ↑ [Jump up to:17.0 17.1 17.2](#) Ольга Максимова. „[Воевал на Могилевщине и обрел здесь мать. В Узбекистане стартовали съемки фильма о Толике Казбеке](#)“ (rus tilida) (2022-yil 23-may). 2023-yil 22-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
18. ↑ [Jump up to:18.0 18.1](#) [Семья Апанасенко из кубанского хутора Братского 2008](#), s. 122
19. ↑ [Jump up to:19.0 19.1 19.2 19.3 19.4 19.5 19.6](#) „[Таких людей мы должны помнить всегда](#)“ (rus tilida) (2022-yil 3-iyul). 2023-yil 22-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
20. ↑ „[Kazbek](#)“ — [rishtonlik partizan 2019](#), s. 76—77
21. ↑ Naim Oblomurodov. „[Gitler Mamadali Topivoldiyevning boshi uchun 50 ming marka tikkan edi](#)“ (2022-yil 15-noyabr). 2023-yil 20-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
22. ↑ [Семья Апанасенко из кубанского хутора Братского 2008](#), s. 120
23. ↑ [Jump up to:23.0 23.1](#) „[Xotira — abadiy, qadr — muqaddas. Rishton tumanida tadbir](#)“ (2023-yil 4-may). 2023-yil 29-mayda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
24. ↑ „[Kazbek](#)“ — [rishtonlik partizan 2019](#), s. 80
25. ↑ [Jump up to:25.0 25.1 25.2](#) Петр Климов. „[Разведчик Толя Казбек стал названным сыном для спасшей ему жизнь белоруски, а она не пережила, когда его убили в мирное время](#)“ (rus tilida) (2022-yil 2-avgust). 2023-yil 22-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.

26. ↑ [„Kazbek“ — rishtonlik partizan 2019](#), s. 82
27. ↑ [Jump up to:27,0 27,1 „Kazbek“ — rishtonlik partizan 2019](#), s. 83
28. ↑ [„Тапвалдыеў Мамадали“](#) (belarus tilida). 2023-yil 20-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
29. ↑ [Jump up to:29,0 29,1 29,2 29,3 „Они освобождали Беларусь. Герой Советского Союза Мамадали Топвалдыев“](#) (rus tilida) (2020-yil 13-mart). 2023-yil 21-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
30. ↑ [Jump up to:30,0 30,1 !\[\]\(c4625de44d0634bcc73fe3bcd4506b40_img.jpg\) Boshi uchun Hitler 50 ming marka mukofot va'da qilgan farg'onalik Kazbek YouTubeda](#)
1. [Семья Апанасенко из кубанского хутора Братского 2008](#), s. 132
2. ↑ [YouTube Память сердца: сенатор из Узбекистана хранит фотографии друга семьи Мамадали Топвалидиева YouTubeda](#)
3. ↑ [„В Ташкенте состоялся вечер, посвященный Дню независимости Республики Беларусь“](#) (rus tilida) (2021-yil 3-iyul). 2023-yil 20-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
4. ↑ [„То 75-солагии Пирӯзии бузург аз болои истилогарони фашизм моҳҳои башумор мондаанд“](#) (tojik tilida) (2019-yil 29-oktyabr). 2023-yil 20-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
5. ↑ [Jump up to:35,0 35,1 35,2 35,3 Маъруф Усманов. „Узбекско-белорусская дружба и эхо прошедшей войны“](#) (rus tilida) (2019-yil 5-oktyabr). 2023-yil 20-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
6. ↑ [YouTube Фильм "Казбек": история о подвиге партизана Мамадали Топвалдыева в Беларуси. Главный эфир YouTubeda](#)
7. ↑ [Парк Победы: философия мужества и стойкости](#), s. 64
8. ↑ [Botir Madiyrov. „Rishtonlik qahramon — „Kazbek“, „Osiyo arsloni“ni bilasizmi?!“](#). „Xalq so'zi“ gazetasi sayti (2022-yil 9-may). 2023-yil 20-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
9. ↑ [„Rishtonning qahramon o'g'loni Mamadali Topvoldiyev memorial muzeyining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi“](#). *Farg'ona viloyati hokimligi rasmiy sayti* (2022-yil 8-may). 2023-yil 20-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
10. ↑ [Hamid Burhon. „O'talarimiz xotirasi mangu yashaydi“](#). 2023-yil 20-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
11. ↑ [„Mamadali Topvoldiyev memorial muzeyi ochildi“](#). *Farg'ona haqiqati gazetasi*, №36 (2022-yil 10-may). 2023-yil 21-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
12. ↑ [„Kazbek“ — rishtonlik partizan 2019](#), s. 90—91
13. ↑ [„Топвалдыев Мамадали“](#) (rus tilida). 2022-yil 28-noyabrda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.

14. ↑ „Топвалдыев Мамадали“ (rus tilida). 2023-yil 27-sentyabrda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
15. ↑ „Незабытая песня“ (rus tilida). 2023-yil 20-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
16. ↑ „Унутилмас кахрамонлар“ фильмлари премьера қилинди“ (2021-yil 5-may). 2023-yil 20-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
17. ↑ „Фильм о жизни и подвиге Героя, белорусского подпольщика и сына узбекского народа Мамадали Топвалдыева будет экранизирован в совместном проекте“ (rus tilida) (2022-yil 31-may). 2023-yil 21-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
18. ↑ „В Ташкенте презентовали новые узбекско-белорусские кинопроекты“ (rus tilida) (2022-yil 11-may). 2023-yil 20-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
19. ↑ „"Беларусьфильм" и "Узбекфильм" приступили к съемкам совместной киноленты под рабочим названием "Казбек"“ (rus tilida) (2022-yil 14-may). 2023-yil 19-oktyabrda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
20. ↑ „Ulug‘bek Qodirov yana bir filmda bosh rolni ijro etmoqda“ (2022-yil 8-may). 2023-yil 20-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
21. ↑ „Узбекские и белорусские кинематографисты приступили в Фергане к съемкам фильма «Азиатский Лев»“ (rus tilida) (2022-yil 8-may). 2023-yil 20-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
22. ↑ „Узбекфильм приступил к съемкам картины о партизане Мамадали Топвалдыеве. Его сыграет Улугбек Кадыров“ (2022-yil 8-sentyabr). 2023-yil 20-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
23. ↑ „Ulug‘bek Qodirov o‘zbek-belarus filmida suratga tushadi. Film byudjeti 2 million dollar“ (2022-yil 12-noyabr). 2023-yil 20-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
24. ↑ „Листопад кинофестивали доирасида ўзбек-беларусь қўшма лойиҳасида таниқли киноактёр Улуғбек Қодиров “Казбек” фильмидаги бош ролга тасдиқланди“ (2022-yil 12-noyabr). 2023-yil 20-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
25. ↑ „Улуғбек Қодиров иштирокидаги “Осиё арслони” фильмини суратга олиш ишлари бошланди“. 2023-yil 20-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
26. ↑ „Ulug‘bek Qodirov o‘zbek-belarus qo‘shma kinoloyihasida bosh rolni ijro etadi“ (2022-yil 12-noyabr). 2023-yil 20-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.

- 27.↑ Muhiddin Abdusamatov. „Yozuvchilar tuhfası: Urush, noming o‘chsin jahonda...“. [uza.uz](#) (2020-yil 14-may). 2023-yil 21-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.
- 28.↑ Shahnoza Soatova. „Boshi uchun 1 mln dollar o‘zbek yigiti“. [xabar.uz](#) (2023-yil 27-may). 2023-yil 21-iyunda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2023-yil 20-iyun.

Adabiyotlar

- To‘lqinjon Zohidov. „*Kazbek*“ — *rishtonlik partizan* (o‘zbek va rus tillarida). [Farg‘ona](#): „Farg‘ona“ nashriyoti, 2019 — 104-bet.
- Вячеслав Апанасенко. *Семья Апанасенко из кубанского хутора Братского* (rus tilida), Краснодар, 2008 — 260-bet.
- *O‘zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi (kitob-albom)*. [Toshkent](#): „O‘zbekiston“ NMIU, 2020 — 320-bet.
- Акмал Саидов. *Парк Победы: философия мужества и стойкости* (rus tilida). Ташкент: Тасвир, 2021 — 348-bet.
- Baxtiyor Abdudafur. „Kazbek – Osiyo arsloni“